

## BUGUNGI KUNDA YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALIZMNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

**Sunnatova Sarvinoz Abror qizi**

SamDU Yuridik fakulteti, Falsafa yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: [sarvinozsunnatova4@gmail.com](mailto:sarvinozsunnatova4@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XXI asr globallasuv asrida insoniyat tarixiga kirib kelgan virtualistika fanining ijobiy yutuqlari insoniyat uchun qay darajada muhim ekanligi va uni hayotimizga tatbiq etilayotgani, salbiy jihatlarini esa qabul qilmaslik lozimligi yoritilib berilgan. Virtuallik tushunchasining ma‘nosiga izoh berilgan. Yoshlar hayotida virtual olamdan to‘g‘ri maqsadlarda axborot almashish, muloqot qilish, va turli xil yod g‘oyalarga aldanib qolmasliklari lozimligi keng tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** virtualizm, kibermakon, virtualistika, axborot, texnologiya, kiberterrorizm, mafkura.

### ABSTACT

This article highlights how important the positive achievements of the science of virtual science, which has entered the history of humanity in the age of globalization of the 21st century, are for humanity and how it is applied to our lives, and the negative aspects should not be accepted. The meaning of the concept of virtuality is explained. It has been widely analyzed that young people should exchange information from the virtual world for the right purposes, communicate, and not be deceived by various foreign ideas.

**Key words:** virtualism, cyberspace, virtualistics, information, cyberterrorism, ideology.

Axborotlashtirish jarayonining ildam rivoji insoniyat tarixiga “ virtualistika” deb nomlanuvchi zamonaviy tadqiqot yo‘nalishining kirib kelishiga turtki bo‘ldi. Ayni vaqtda, insonlar eng yangi texnologiyalar yordamida erkin muloqot qilayotgan bugungi globallashtirish asrida ushbu sohada puxta o‘ylangan davlat siyosatini amalga oshirish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bu borada jamiyatimizni rivojlantirish va uning jahon axborot aloqa tizimi standartiga moslashtirish zarurati tug‘iladi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 21-martda qabul qilingan “ Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va joriy qilish chora-tadbirlari”ga oid qarorida shunday vazifalar belgilangan. Ushbu hujjat “ Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, joylardagi hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan.

Har bir yangi fan yo‘nalishi yuzaga kelar ekan, albatta, uning tadqiqot usullarini, o‘rganish obyekti nimalardan iborat ekanligini o‘rganishga ehtiyoj tug‘iladi va bu tadqiqotni falsafa fani o‘z zimmasiga oladi. Virtualistika atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u lotincha “ virtus” so‘ziga borib taqaladi. Tadqiqotchilar “virtus” atamasining quyidagi ma‘nolarini qayd qilganlar: ahloqiy qadriyat, yaxshilik, ezgulik, xayoliy, jasorat, potentsiallik, noreallik va boshqalar.

Virtualistikaning paydo bo‘lishi 1986-yilda O.I. Genirateskiy “виртуальные состояния в деятельности человека оператора” maqolasini e‘lon qilgan vaqtga vaqtga to‘g‘ri keladi, bu virtuallik g‘oyasi hodisasining tubdan yangi turi sifatida fanga kirib keldi[1.147]. Virtualistika atamasi N.A.Nosov tomonidan taklif qilingan va 1991-yilda Rossiya Fanlar Akademiyasining Inson institutida Virtualistika laboratoriyasi tashkil etilganda rasmiy maqomga ega bo‘lgan. Albatta, inson va kompyuter o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan virtual reallik oqibatida yuzaga chiqadigan ta‘sirlarning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini o‘rganishga urg‘u beriladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda axborotlashtirishga qaratilgan yuksak e'tibor natijasida, insonlar faoliyatini virtuallashtirishga, axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish uchun keng yo'l ochildi. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi Farmoni (07.02.2017) 2.2 bandining “ Elektron hukumat” tizimini takomillashtirishga oid qarashlarini keltirishimiz mumkin. [2]

Bunday olib borilayotgan harakatlarning bosh sababi shundaki, virtual olam o'zida bir qancha qulayliklarni mujassam qilgan: vaqt va mablag'ning tejallishi, bir vaqtning o'zida bir qancha davlatlar o'rtasida axborot almashish imkoniyatining mavjudligi, bir qancha to'lovlarning uyda o'tirga holda amalga oshirilishi shular jumlasidandir.

Axborot asri bo'lgan XXI asrda insoniyatning virtual olam bilan bog'langanlik darajasi oshib bormoqda. Virtual reallik orqali inson qabul qilayotgan axborot miqdori oshib, ba'zi bir holatlarda inson ularni qayta ishlashga ojizlik qilmoqda. Virtual olamda tarqatilayotgan axborotlarning sanoqli qismigina ishonchli bo'lib, qolganlari ko'pincha “ feyk” xabar bo'lib qolmoqda. Prof. Sh.Kushakov talqini bilan aytganda, “virtual olamda ko'proq yolg'on ma'lumot tarqatish, kishilarni aldash, chalg'itish oson kichadi” [3.19]. Bu kabi qurbonlarning aksariyat qismi yoshlar hisoblanadi. Ular qiziquvchan, shijoatli va ishonuvchan bo'lganligi sababli tezda aldanishadi.

Internet fan- texnika taraqqiyotining natijasidir. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish mushkul. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi insonlarning o'zaro muloqotini va axborot almashinuvini mislsiz darajada osonlashtirdi. Internet orqali muloqot va axborot almashinuvi qulay. Shu sababli, internet tizimi orqali kishilarning ongiga “ hujum” uyishtirish holatlari ko'plab uchramoqda. Bunday amaliyotlarni amalga oshirishda “kibermakon” qulay muhit hisoblanadi. Kibermakon dunyo kompyuter tarmoqlarining “virtual” umumiy majmui. Kibermakonda insonni ham ma'nan, ham jismonan yo'q qilishi mumkin

bo‘lgan kuch bu- kiberterrorizmdir. Kiberterrorizm bu- zamonaviy texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning g‘araz niyatlariga erishishdan iborat. Kiberterrorizm insoniyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Ayni damda uning kuchi yadro va kimyoviy qurol kuchiga tenglashtirilmoqda. Albatta, bu insoniyatga qarshi qaratilgan mafkura ostida amalga oshiriladi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “bugungi zamonda mafkura poligonlari, yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega”[4.71].

XXI globallashuv asri deb nomlanganligi bejiz emas. Axborotning muhim ekanligi darajasi yuqori marralarni zabt etdi. Globallashuv jarayonida yuzaga kelgan muammolardan biri tadqiqotchilar fikricha, global o‘zgarishlar faqat iqtisodiy omillar bilangina chegaralanmasdan, madaniy o‘ziga xosliklarga ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunda biz yoshlar faqat ilm-fan yutuqlarining ijobiy xususiyatlarini o‘zlashtirishimiz va salbiy jihatlarini qabul qilmasligimiz lozim. Virtualistika- falsafiy tadqiqotlarning tarkibiy qismidir va uning imkoniyatlarini, kategoriyalarini, tadqiqot obyektini falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Virtualistika hodisasining ilmiy mohiyatini anglash dolzarb muammoga aylanib qolmoqda. Yuzaga kelgan muammolarni yechishda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy o‘zligini anglash, ma’naviyatini boyitish kabi tushunchalarni shakllantirish lozim. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy aytganidek, “ Inson tabiatning eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko‘rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch berilgan. Shu sababdan, insonning ma’naviy olami uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma’rifatli bo‘lmog‘i lozim ”[5.115].

Virtual olamdan foydalanishning afzalliklari shundaki, unda axborot ulashish, qabul qilish, qayta ishlash juda oson amalga oshiriladi, muloqot uchun qulay makon hisoblanadi. Qolaversa, uzatilayotgan axborot muallifsiz ko‘rinishda bo‘lishi ham mumkin. Bu esa yovuz niyatli shaxslar uchun qo‘l keladi. Shu sababli, virtual olamda aldovlar ko‘p, sifatli axborotlar soni kam. Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq- atvorlariga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Shu

sababli, yosh avlodni virtual olamdagi turli xil sodir etilayotgan tahdidlardan himoya qilishimiz zarur. Buning uchun **birinchidan**, yoshlar bilan shug‘ullanuvchi markazlar hamda ma’naviyat va ma’rifat markazlari hamkorlikda yoshlarni ongida ma’naviyat, vatanparvarlik hissini uyg‘otishga xizmat qiluvchi online dasturlar ishlab chiqilishi zarur. **Ikkinchidan**, yoshlarning tafakkur faoliyatining taraqqiyotiga xizmat qiluvchi dasturlar yarata oladigan dasturchilarni voyaga yetkazishimiz lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Труды ГосНИИ гражданской авиации. Авиационная эргономика и подготовка летного состава. Вып 253.М. 1986.с.155
2. O‘zbekiston Respublikasining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida// rasmiy nashr// O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.- T.: Adolat. 2017
3. Кушаков Ш.С. Фейковая модел дезинформатсии как разновидност симулякора. Yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalashning dolzarb masalalari. Talabalar ongida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Samarqand. 2019.-B 19-21
4. Karimov.I. “ Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”.-T.: “Ma’naviyat”. 2008.  
-B 108
5. Shayakubov Sh. “Dinshunoslik” fanidan o‘quv uslubiy majmua.-T.:TMI.2018.  
-B 305